

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

— 2-2023 —

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.Arslonzoda, O.Maripov	
O'zbekiston Respublikasida davlat arxivlari faoliyatining takomillashib borishi	318
R.Urazova	
Avesto yashlarida Mitraning sifatleri	325
N.Nizametdinov	
Markaziy Osiyoning Xitoy bilan aloqalari tarixi.....	331
I.Burxonov	
Asomiddin O'rinboev ilmiy merosida Abduxoliq G'ijduvoni tasavvufiy ta'limotiga oid ruq'alarning o'rganilishi.....	338
N.Jumaev	
XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro vohasi dehqonchilik madaniyati tarixidan	342
D.Akramov	
Xalq maorifining nazariy asoslari.....	348

ADABIYOTSHUNOSLIK

G.Oripova	
Mustaqillik davri o'zbek lirikasida ritm va ohangdorlik.....	354
I.Baltayeva	
Adabiy vorisiylikning xorij adabiyotida o'rganilishi.....	359
F.Oxunjonova	
XIX asr oxiri va XX asr boshlarida zullisonaynlik an'anasi takomili (Nodim, Xilvatiy, xayratilar ijodi misolida)	362
D.Uralova	
Ulug'bek Hamdamning "Safar" hikoyasida ramziy obrazlar uyg'unligi.....	366
S.Begmatova	
Jahon adabiyotida distopik asar turlariga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar	370
A.Yuldashev	
Alisher Navoiy asarlarida so'z tavsifi	374
O.Barziyev	
Farzand taqdiriga murojaat yoki ularga nasihat qilish mavzusiga oid an'anaviy poetik turkumlar	382
D.Sultonova	
Badiiy kriminal asarlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari.....	387
S.Alibekova	
O'tkir Hoshimovning hajviy xarakter yaratish mahorati	392
Sh.Sherg'oziyev	
"Boburnoma" matnida foydalanilgan saj'i mutarrafnig ingliz tili tarjimalarida aks ettirilishi	396
X.To'raxonova	
Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonida badiiy tasviriy vositalarning qo'llanilishi	400
D.Hazratkuliyon	
Hozirgi O'zbekiston tojik she'riyatida bediliy uslub an'analariga izdoshlik (Ja'far Muhammad Termiziy she'ri misolida)	403
M.Narziqulov	
Tojik adabiyotida g'azalning mundariyasi va shakli o'zgarishi	410
M.Mirzoyev	
Farzona Xo'jandiy she'rlarida mifologik personajlar badiiy ifodasining xususiyatlari	420

TILSHUNOSLIK

Z.Alimova	
Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" asaridagi ayrim forscha qo'shma so'zlarning leksik-semantik xususiyatlari haqida	425
O.Nazirova	

XALQ MAORIFINING NAZARIY ASOSLARI
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
THEORETICAL FOUNDATIONS OF PUBLIC EDUCATION

Akramov Doston Faxriddin o'g'li¹

¹Akramov Doston Faxriddin o'g'li

– Buxoro davlat universiteti, Jahon tarixi kafedrası
o'qituvchisi

Annotatsiya

Sovetlar boshqaruvi arafasida maorif sohasi, uning holati, maktablarning miqdoriy o'zgarishi, kadrlar tayyorlash tizimidagi o'ziga xos xususiyati, uning o'zbek xalqi madaniyatiga yetkazgan oqibatları, ta'siri va yakunları. Maktablarning o'qitish xususiyati, dunyoviy fanlarning joriy etilishi, rus tilini ommalashtirish haqida tilga olingan.

Аннотация

Накануне советской власти сфера образования, ее состояние, количественные изменения школ, особенности системы подготовки кадров, ее последствия, влияние и результаты на культуру узбекского народа. Были упомянуты характер преподавания в школах, внедрение светских наук, популяризация русского языка.

Abstract

On the eve of the Soviet rule, the field of education, its condition, quantitative changes of schools, the unique features of the personnel training system, its consequences, effects and results on the culture of the Uzbek people. The nature of teaching in schools, the introduction of secular sciences, popularization of the Russian language were mentioned.

Kalit so'zlar: Maorif, kurs, tilmoch, krujok, mutavalli, a'lam, vaqf, qozi, pisar, mirza, tuzem.

Ключевые слова: Образование, курс, тильмох, кружок, мутавалли, алам, вакф, кази, писар, мирза, музем.

Key words: Education, course, tilmoch, krujok, mutavalli, a'lam, waqf, qazi, pisar, mirza, tuzem.

KIRISH

Podsho hukumatining O'rtasiy xonliklarini 1847-yildan e'tiboran istilo qilishi va 1867-yil "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risida"gi nizomga ko'ra Turkiston general-gubernatorlik tashkil etilib, unga Konstantin Kaufman tayinlandi. Kaufman(1867-1883-yillar) dastlab mustamlakachilik siyosatini davom ettirish va bosib olingan hududlarda nazoratni qo'lga olish uchun asrlar davomida shakllangan islom madaniyati va mafkurasiga qarshi chora-tadbirlar qo'llay boshladi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Maqola umum qabul qilingan tarixiy uslublar – tarixiylik, qiyosiy – mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib, unda dunyo aholisining diniy qarashlari va dunyoda turli din, millat vakillari o'rtasidagi sodir bo'layotgan ziddiyatlar, hamda turli sabablarga ko'ra yurtimizga kelib qolgan va shu yerda qolib, yashab faoliyat yuritayotgan o'zga millat va din vakillariga davlatimiz tomonidan yaratilayotgan shart-sharoitlar, O'zbekiston xalqining bag'rikengligi, tinch-totuvligi, tinchliksevarligi, hukumatimiz tomonidan bu borada olib borilayotgan oqilona siyosatning mamlakatning ijtimoiy – siyosiy, ma'naviy hayotida yuksak natijalarga erishayotganligi ko'rsatib o'tilgan.

TADQIQOT NATIJALARI

Kaufman 1868-yil Toshkentdagi Beklarbegi va Xo'ja Ahror Vali madrasalariga bordi, madrasalarda rus tili va umumiy tarix o'qitishni aytdi hamda qozi mudarrislarga ushbu fanlarni o'tishga rozi qildi, lekin mutaxassis topilmagach, musulmon –tatarni tayinlaydi. Ammo tatar mudarris masjidga imomlik qilayotganligi ma'lum bo'lgach, lavozimidan tatarni chetlashtiradi hamda bu ish muvafaqqiyatsiz tugaydi. Rossiya Maorif Vazirligining 1870-yil martida qabul qilingan "Rossiyada yashovchi g'ayritabaalarning ta'limiga oid choralar haqida"gi qonun zamirida mustamlakachilik va ruslashtirish siyosatini amalga oshirdi. 1873-yil Kaufman podsho hukumatiga o'zining "Turkiston o'lkasida xalq ta'limi va o'quv ishlarini tashkil etish" rejasini taqdim etdi. Rejaga

TARIX

ko'ra, musulmon maktablariga qarshi rus maktablarini tuzish va shu orqali ruslashtirish hamda mustamlakachilikni yanada mustahkamlashni ko'zda tutdi.

1875-yil Rossiya Maorif vazirligi Turkiston o'lkasi o'quv yurtlari boshqarmasi va o'quv yurtlari Bosh inspektorlik tashkil etdi. Ushbu tashkilot barcha musulmon va rus ta'lim muassasalarini boshqarish huquqini oldi.

1876-yil Kaufman Qozon shahrida rus bo'lmagan aholi orasida ta'limni yoyish bo'yicha missioner I. Ilminskiy bilan uchrashib, shogirdi Qozon diniy akademiyasi bitiruvchisi N. Ostroumovni Turkistonga ishga taklif etdi. 1877-yil N. Ostroumov o'quv yurtlari Bosh inspektorlik lovozmiga ish boshlab, uztozi ko'rsatmalari ko'ra reja tuzdi. 1879-yil Rossiya Maorif Vaziri graf Dmitriy Tolstov "Turkiston o'lkasi xalq bilim yurtlari inspektorlariga dasturlar"ini tasdiqladi. Ushbu dasturlarga ko'ra 4 ta islohot amalga oshirildi:

1. Diniy–ma'muriy lavozim raislik bekor qilindi. Natijada farzandlarini maktabga va maktabga farzandlari uchun pulni yubormaydigan bo'lishdi.

2. Mutavalliboshi lavozimi bekor qilindi va vaqf mulklari ustidan nazorat yo'qoldi va vaqf mulklarini talon-taroj qilish kuchaydi.

3. A'lamlik lavozimi bekor qilindi va bu mudarrislarni o'z ishlariga sovuqqonlik bilan yondashishini vujudga keltirdi.

4. Madrasani tamomlab, katta ma'muriy ishlarga olinmadi va barcha harbiylar tayinlanadigan bo'ldi.

Kaufman eng obro'li lavozim – qozilikni ham uyezd boshliqlari tayinlaydigan nizom qabul qildi. Bu esa qozilikka bilimli kishilar emas, aksincha odamlar olina boshlandi.

1883-yil Kaufman vafot etgach, Turkiston o'lkasiga senator Girs taftish o'tkazish maqsadida keladi. Shunda Sirdaryo va Farg'ona viloyatlari, Zarafshon okrugi va Amudaryo bo'limidagi 253 ta qozidan 25 tasi boshlang'ich ma'lumotli, 3tasi o'rta ma'lumotli va 10 foizi oliy ma'lumotli bo'lishiga qaramay savodsiz ekanligini qayd etgan[1, B. 23].

1908-yilda Turkistonning yirik viloyatlaridan biri bo'lgan Farg'onada ham diniy maktablar soni ortib bordi. Viloyatda 26446 o'quvchisi bo'lgan 1854 maktab, 6913 tinglovchisi bo'lgan otin oyi maktablari faoliyat ko'rsatdi. 1914-yilda Farg'ona viloyatida 2580 ta maktablar faoliyat ko'rsatib, ularda 41377 ta o'quvchi (ularda 8219 tasi qizlar) tahsil olgan[2, B. 23].

1910-yilda Toshkent shahrida 223 ta diniy maktablar faoliyat ko'rsatib, ularda 6179 ta o'quvchi tahsil olgan. Toshkent shahridagi diniy maktablarning soni boshqa shaharlarga qaraganda, 1910-yilda yuqoriroq bo'lgan. Mazkur muassasalarda tahsil oluvchi o'quvchilarning soni ham ko'p bo'lgan. 1910-yilda shaharda 1139 talabaga ega bo'lgan 22 ta madrasa mavjud edi. Ularda 27 ta mudarris dars bergan. 1911- 1912-yillarda Toshkentning eski shahar qismida 1255 talabaga ega bo'lgan 21 ta madrasa, 5687 o'quvchiga ega bo'lgan (ulardan 1621 tasini qizlar tashkil qilgan) 213 ta maktab, 194 o'quvchiga ega bo'lgan 9 nafar qorixona mavjud bo'lgan. 1910-yil Sirdaryo viloyatida 804 maktab, Farg'onada 2446, Samarqandda 2753 jami 6003 maktab faoliyat ko'rsatdi. Imperiya amaldorlarining maktablar faoliyatini har qanday cheklashlariga qaramay, ularning soni o'sishda davom etdi. Xususan, 1910-1911-o'quv yilidagi qaydnoma ma'lumotlariga ko'ra, o'lkada 7571 musulmon maktabi bo'lib, ularda 103037 ta o'quvchilar bo'lgan. 1913-yilga kelib esa ularning soni 100 taga ortdi, lekin o'quvchilar soni 20000 ga kamaydi[3, B. 24].

1912-yili Turkistonda 4632 ta maktabda 44,5 mingta o'quvchi o'qigan[4, B. 12]. 1916-yilning 1 yanvariga kelib, Turkistonda 7101 ta maktab, 449 ta madrasa faoliyat ko'rsatgan. 1917-yil Xiva xonligida 280 ta diniy maktablar faoliyat yuritgan. Xulosa qilib aytganda, Buxoro amirligida boshlang'ich ta'lim XIX asr oxiri – XX asr boshlarida zamon talablaridan ortda qolib, islohotlarga muhtoj bo'lib qolgandi.

XIX asr o'rtalaridan Rossiya imperiyasining amalga oshirila boshlangan istilolari natijasida Turkiston o'lkasiga yot sanalgan din va millat kirib keldi. Ana shunday sharoitda mavjud mustamlakachilik va ruslashtirish siyosatini amalga oshirish uchun rus maktablari va xristian missionerlari kirib keldi. Rus maktablari quyidagi turlari mavjud edi:

- Umumiy rus maktablari
- Kasb maktablari
- Rus-tuzem maktablari
- Rus tilini o'rganish kurslari

1866-yili Xalq maorifi vaziri lavozimiga yangi tayinlangan D.A.Tolstoy tomonidan maktabda ijtimoiy tabaqalashuv, ularning boshqaruvida harbiy-ma'muriy tizim ahamiyatini oshirish maqsadida 1871-yilda "Gimnaziya va progimnaziyalar Nizomi", 1872-yili "Real bilim yurtlari Nizomi" va 1874-yili "Boshlang'ich xalq bilim yurtlari Nizom" larini qabul qilinishi Rossiya imperiyasining ta'lim sohasida keyingi davr, ya'ni ikkinchi bosqich islohotlarning asosiy mantiqiy negizini tashkil etdi. Turkiston o'lkasida dastlabki rus maktablari o'lkaga ko'chib kela boshlagan rus aholisi farzandlari uchun tashkil etilgan. 1866-yili Toshkent shahrida ixtiyoriy ehsonlar hisobidan Juykova xususiy maktabi tashkil etildi. Bu maktab 1867-yili g'aznadan "Toshkentdagi rus aholining quyi tabaqasi vakillarini ta'limga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun" katta bo'lmagan mablag' bilan ta'minlandi. O'sha yili maktabda 11 ta qiz va 7 ta o'g'il bolalarga ibodat qilish, muqaddas tarix, sanoq, arifmetikaning birinchi amallari, yozuv, qo'l hunarlari o'rgatilib, mart oyiga kelib maktabda o'quvchilar soni 15 ta qiz va 18 ta o'g'il bolaga etgan.

1869-yili Toshkentda Turkiston o'lkasi "badavlat xonadon bolalari"ni gimnaziyalarning IV sinfiga tayyorlovchi Paxert xonimning xususiy maktabi tashkil etilgan. 1871-yili esa Toshkentda ham o'g'il, ham qiz bolalar uchun uch sinfli hunarmandchilik sinflari bo'lgan xalq maktabi tashkil etildi. 1871-yili Samarqandda ilk rus maktabi tashkil etildi. Keyinroq Turkiston o'lkasi tarkibiga qo'shib olingan Kattaqo'rg'on, Petroaleksandrovsk (hozirgi To'rtko'l) va boshqa shaharlarda boshlang'ich maktablar vujudga kela boshladi. 1876-yilgacha ya'ni, Turkiston O'quv ishlari boshqarmasi o'z faoliyatini boshlaguniga qadar, o'lkada 25 ta boshlang'ich maktab bo'lib, ularda 1074 ta o'g'il va qiz, asosan, rus millati farzandlari ta'lim olishardi. 1882-yil yanvarga kelib Turkiston o'lkasida 67 ta rus ta'lim muassasalari bo'lgan. Jumladan, 2 ta o'g'il bolalar, 2 ta qizlar gimnaziyasi, 1 ta o'qituvchilar seminariyasi, 1-chi nozirlik rayonida (Ettisuv viloyati va G'ulja hududida) 5 ta shahar, 30 ta diniy, 2-chi nozirlik rayonida (Amudaryo bo'limi, Xo'jand uyezdisiz Sirdaryo viloyati) 7 ta shahar, 6 ta diniy, 3-chi nozirlik rayonida (Farg'ona viloyati, Xo'jand uyezdi va Zarafshon okrugi) 6 ta shahar, 8 ta diniy maktablar mavjud edi[5, B. 93-99]. Ularning barchasi Xalq maorifi vazirligi tomonidan boshqarilgan. 1911-yil yanvariga kelib o'lkada birgina boshlang'ich rus ta'lim muassasalarining soni 476 taga etgan. Chor Rossiyasi Turkistondagi hukmronligi davrida XIX asrning 70-80-yillarida ko'plab xalq qo'zg'olonlari, xalqlarning ruslarga qarshi harakatlari kuchayib ketdi hamda Chor hukumat bunga qarshi Turkiston general – gubernatori etib Rozenbax (1884-1889) tayinlandi. Turkiston general-gubernatori Rozenbax shunday degan edi: "Eski maktablar biz uchun xavfli emas, lekin madrasalar biz uchun juda katta xavf-xatar tug'dirishi mumkin". Shuning uchun viloyat boshqarmalariga vaqf daromadlarini qanday maqsadlarda sarflanganligini taftish qilish huquqi ham berilgan[6, B. 12]. Turkiston general-gubernatori Rozenbax o'z faoliyatining maorif tizimini rivojlantirishga va shu orqali aholi bo'ysunuvchanlik qobiliyatini yanada mustahkamlash uchun o'lkadagi rus fuqarolardan unumli foydalanib, maktablar tashkil eta boshladi. Bu xalq orasida Rus – tuzem maktablari deb nomlandi. Rus-tuzem maktablar rasmiy jihatdan, bu maktabning vazifasi «tuzemniy-lug'aviy ma'nosi yerlik degan ma'noni bildiradi» xalq bolalarini rus tiliga o'qitish edi. Haqiqatda esa bu maktablar mehnatkashlarning bolalarini o'qitish uchun emas, balki mahalliy boylar, feodallar va savdogarlarning bolalarini o'qitish uchun ochilgan edi. Bu kabi maktablar xalq bolalarini podsho hukumati tuzumiga sadoqat ruhida tarbiyalashi, mustamlakachilarning byurokratik mahkamalari uchun tilmoch (tarjimon) kadrlar tayyorlashi kerak edi. Bu maktablarda bolalariga rus tili, arifmetika, tarix, geografiya o'qitilar edi. Bu bolalarga tarix o'qitishdan maqsad ularni podsho hokimiyatiga sadoqat ruhida tarbiyalash edi. Podsho hukumati islom «peshvolari»ga juda katta moyana tayinladi, bu yo'l bilan podsho hukumati aholining bu maktablarga bo'lgan ishonchsizligini bartaraf qilishni o'ylagan edi. Ammo chorizmning niyatlariga zid o'laroq, bu maktablar mahalliy xalq o'rtasida savod va bilim tarqatishda progressiv rol o'ynadi. Musulmon diniy maktablarida (maktablar, madrasalar, qorixonalarda) faqat diniy aqidalargina o'qitilar edi, bunga qarama-qarshi o'laroq, «russko-tuzemniy» maktablar o'quvchilarga umumiy ma'lumot ham berar edi. Garchi jadid maktablarida arifmetika, geografiya, tarix o'qitilsa ham, lekin rus tili o'qitilmas edi. Bundan tashqari, «russko-tuzemniy» maktablarida mahalliy xalq bolalari rus bolalari bilan birga o'qir edilar. Bu hol mahalliy xalqning ruslar bilan yaqinlashuviga shubhasiz yordam berdi.

Rus maktablari, O'zbekiston territoriyasida, 1876-yilgacha 6 ta rus maktabi ochilgan edi, bulardan uchtasi Toshkentda, ikkitasi Samarqandda, bittasi Kattaqo'rg'onida ochilgan edi. Turkiston o'lkasining markazi bo'lgan Toshkentda 1876-yilda yigitlar gimnaziyasi, 1894-yilda real bilim yurti,

TARIX

1896-yilda paxta tozalash zavodlari uchun kadrlar bilim yurti, 1897-yilda sug'orish inshootlari nazoratchilari kursi, 1902-yilda gidrotexnika maktabi, 1904-yilda temir yo'l texnika bilim yurti, 1904-yilda Samarqandda bog'dorchilik-uzumchilik va vinochilik maktabi ochilgan edi [7, B. 11]. Chor hukumatining maktab siyosati uning mustamlakachilik siyosati manfaatlariga bo'sundirilgan edi. Rus maktabini tamomlab chiqqan kishilar orasidan podsho amaldorlari, prikazchiklar, pisarlar (mirzalar) tanlab olinar edi; bu kadrlar mustamlakachilarning tayanchi edi.

Ko'plab tarixiy adabiyotlarda rus-tuzem maktablarining tashabbuskori sifatida general-gubernator N.O.Rozenbax (1884-1889) qayd qilinadi. Lekin K.P.Kaufman davridayoq mahalliy toshkentlik savdogar Saidazimboy o'lka rahbariyatiga 1840-yili bunyod etilgan Eshonqo'li madrasasida shariat ta'limini saqlagan holda rus tili, rus qonunlari, arifmetika o'qitish, hunarlarni o'rgatish taklifi bilan chiqqan edi. Yangi turdagi maktabning rasmiy tashkil etilishi mahalliy tashabbus tufayli tezlashtirildi. 1884-yili 19-dekabrda Toshkentda savdogar Saidazimning o'g'li Said G'ani Azimboyev hovlisida yigitlar rus-tuzem maktabi ochildi. 1903-yilda qizlar rus-tuzem maktabi tashkil etildi. Maktab mudiri va rus o'qituvchisi etib V.P.Nalivkin, musulmon sinfining o'qituvchisi etib esa mulla Solixo'ja Kichkinaxojinov tayinlangan [8, B. 84-85]. Rus ma'muriyati mahalliy o'qituvchini rus o'qituvchisi bilan noteng vaziyatga qo'ygan: rus o'qituvchisi uchun yillik maosh 1000 rubl, mahalliy o'qituvchining maoshi esa 400 rubl belgilangan. Yangi turdagi bu maktab "rus-tuzem maktabi" degan nom bilan atala boshladi. 1885 yildan rus-tuzem maktablari tizimi butun Turkiston bo'ylab tarqala boshladi. Shu yili kuzda Toshkent uyezdining Piskent va CHinoz qishloqlarida ikkita shunday maktab tashkil etildi. 1886-yilga qadar yana uchta shunday maktab ishga tushirildi. Imperiya Davlat kengashining «Turkiston o'lkasida xalq ta'limi shakllantirishdagi ba'zi o'zgarishlar haqida»gi farmoni e'lon qilinishi bilan birdaniga 14 ta rus-tuzem maktabining tashkil etilishi Turkistondagi podsho ma'muriyatining mazkur maktablardan qanday natijalar kutayotganligini namoyon etadi.

Turkiston o'lkasida 1901-yilda 45 ta, 1905-yilda 82 ta va 1911-yilda 89 ta rus-tuzem maktabi mavjud edi. Rus-tuzem maktablarining umumiy muvaffaqiyatsizligi Turkiston o'lkasi O'quv ishlari boshqarmasi rahbarlarida o'qitish usullariga biron yangilik kiritish kerak degan fikrni paydo qildi. Rus-tuzem maktablarida o'qitish metodikasiga yangilik kiritish tashabbuskori S.M.Gramenitskiy bo'lgan. U ona tilidan rus tiliga tarjima qilish orqali o'qitish usulini ko'rgazmali asosda tashkil etish, ta'lim dasturlaridan mahalliy tillarni umuman chiqarib tashlash g'oyasini ilgari surdi. 1897-1898 o'quv yili boshidan mazkur usul rus-tuzem maktablarida qo'llanila boshlandi. 1906-yilga kelib maktablar soni 83 taga etdi. 1896-yili Pishpak uyezdining ko'pgina volostlari qirg'izlari imperiya ma'muriyatiga mahalliy aholi hisobidan rus-qirg'iz maktablarini tashkil etish to'g'risida iltimosnoma bilan murojaat qilishdi va To'qmoq (1898), Sokuluk (1899), Taniev va Jungal volostlari (1899), Ketmontepada (1900) rus-qirg'iz maktablari tashkil etilgan. 1894-yili Prjevalsk uyezdi qirg'izlaridan 60 kishi rus-tuzem maktab ochilishini so'rab rus ma'muriyatiga ariza bilan murojaat qilgan. 1903-yili Turkiston pedagogik to'garagi harakati tufayli vujudga kelgan qizlar uchun mo'ljallangan rus-tuzem maktabi ikki yil faoliyat ko'rsatib, tez orada o'z faoliyatini to'xtatdi. Biroq, 1911-yil To'qmoq va Prjevalskda qizlar uchun rus-tuzem maktablari tashkil etilganligi ma'lum. Keyingi yillarda ham xalq ta'limiga ajratilgan davlat mablag'lari miqdori kamligicha qolaverdi. 1915-yili o'lka byudjetidan maorif sohasiga atigi 1084082 rubl, ya'ni o'lka byudjetining 2,4%i sarflangan, ammo harbiy-politsiya mahkamalari ta'minotiga 86,4% mablag' sarflangan. Boshqacha aytganda, bir kishi ta'limiga 22 tiyin (kop.) sarf qilingan. Toshkentdagi birinchi rus-tuzem maktabi o'qituvchisi V.P.Nalivkin 1886-yili "Turkiston o'troq aholisining rus-tuzem maktablari uchun alifbe" ni tuzdi. Ko'plab rus-tuzem maktablarida K.D.Ushinskiyning "Ona tili", "Bolalar dunyosi", V.P.Vaxtyorovning "Bolalar uchun olam ertaklarda", L.N.Tolstoyning "O'qish kitobi" kabi kitoblaridan foydalanilgan. S.M.Gramenitskiyning uchinchi kitobi 4 qismdan iborat bo'lib, birinchi qismda Ushinskiyning "Bolalar dunyosi" dan "Shamol va quyosh", L.Tolstoyning aqlli dehqon haqidagi ertagi, Krilovning "Mehnatkash ayiq", "Demyanov baliq sho'rvasi", "Eshak va bulbul", "Qarg'a va tulki", "Trishkin chakmoni" masallari, Nekrasovning "Ayoq – qizil burun" poemasi dan parchalar, Pushkinning "Baliq va baliqchi haqida ertak" asari va boshqalar joylashtirilgan edi. Ikkinchi bo'lim asosan Rossiya haqidagi turli tarixiy ma'lumotlarga, uchinchi bo'lim Yevropa Rossiyasi, Sibir, Turkiston haqidagi geografik ma'lumotlarga bag'ishlangan. To'rtinchi bo'limda tabiatshunoslikka oid "Ko'mir haqida", "Tuz qayerdan va qanday qazib olinadi", "Zaharli o'simliklar", "Turkistonning foydali o'simliklari va

hayvonlari” kabi turli xil ma’lumotlar berilgan. 1906-yili viloyatda 20 ta maktabdan (rus-tuzem maktablari nazarda tutilmoqda) 13 tasida, 1907-yilda 17 tasida, 1908-yilda esa 11 tasida bitiruvchilar bo’lmadi” kabi ma’lumotlarni keltiradi. U “qishloq joylardagi rus-tuzem maktablarini 1907 yilgi qoidalar asosida isloh qilish” ni taklif etadi. F.I.Egorov taklifiga S.M.Gramenitskiy, F.M.Kerenskiy va boshqa o’qituvchilar qarshi chiqishdi. 1910-yili Toshkentda bo’lib o’tgan Sirdaryo viloyati rus-tuzem maktablari o’qituvchilari sezdi ishtirokchilari mazkur maktablar faoliyatini baholar ekan, ularning ijobiy ahamiyati va rus-tuzem maktablarini Turkistonda “g’ayrita’balar maktabi” ning asosiy shakli sifatida saqlash ta’kidlandi. 1916-yil voqealari Turkistondagi rus maktablari tizimiga o’z ta’sirini o’tkazdi. Bu davrga kelib o’lkada 100 ga yaqin rus-tuzem maktablari bo’lib, ularda 2800 nafar mahalliy bolalar ta’lim olgan. 1916-yilda ularni atigi 105 nafar o’quvchi tamomlagan. Toshkent o’g’il bolalar gimnaziyasining 10 yillik faoliyati davomida unda jami 63 kishi ta’lim-tarbiya bilan shug’ullanib, pedagogik tarkib safida S.M.Gramenitskiy, I.M.Travchetov, N.K.Smirnov (matematika o’qituvchilari), N.P.Znamenskiy, A.I.Neudachin, A.A.Novikov (rus tili o’qituvchilari), P.V.Prilejaev, V.F.Oshanin (geografiya va tarix o’qituvchilari) faoliyat yuritganlar. Progimnaziyaning birinchi inspektori, keyinchalik gimnaziya direktori M.M.YAnko bo’lgan. Samarqandda o’g’il va qiz bolalar gimnaziyalari 1899 yilda 5 ta tashkil etilgan edi. O’lkaning birinchi general-gubernatori o’ziga berilgan vakolatlardan foydalangan holda Turkiston gimnaziyalarida “ochiq pedagogik suhbatlar” o’tkazilishiga xayrixohlik qilishi; 1880-yil aprelda D.Tolstoyning lavozimidan chetlashtirilishi va uning o’rniga kelgan A.A.Saburov rus jamoasi talabi bilan gimnaziyalarda “jamiyat talablari bilan birlashuv” ni ta’minlashni yoqlashlari.

1913-yili ikkinchi Toshkent qizlar gimnaziya binosi barpo etildi. Uning qurilishida ham binoni o’quv jarayoniga moslashtirilishiga katta e’tibor qaratilgan. 1904-yili Samarqand qizlar gimnaziyasi Abramov bulvarida qad ko’targan yangi binoga ko’chirilgan. Bino qurilishiga sarflangan 142182,10 rubldan 100000 viloyatning olti shahri mablag’lari hisobidan qoplangan. Samarqanddagi o’g’il bolalar gimnaziyasi ham 1904-yilning ikkinchi yarmidan maxsus barpo etilgan binoga ko’chirilgan. 1871-yili Toshkentdagi birinchi rus maktabi “xalq-hunarmandchilik” maktabiga aylantirilgan. 1873-yili esa Toshkentda “Turkiston ipakchilik maktabi” ochilib, unga entomolog olim V.F.Oshanin boshchilik qilgan. Mazkur maktabga ma’lum miqdorda o’quvchilar tajriba almashish uchun bir necha oy muddatga komandirovkaga yuborilgan. Maktabning o’n yillik faoliyati davomida ikki xil turdagi Italiya ipak qurti yetishtirilgan edi. To’rtta o’quvchi, mahalliy hunarmandlarga notanish bo’lgan usulda ilg’or Yevropa uskunalarida ipak yozishni o’rgangan. Maktab faoliyati samaradorligiga ipakchilik markazlari Toshkent vohasi emas, Farg’ona va Zarafshon vohalari bo’lganligi qiyinchilik tug’dirgan. 1882-yilda general-gubernator CHernyaev o’quvchilar soni kamligini bahona qilib ipakchilik maktabini yopishga buyruq bergan. 1885-yilda esa mazkur maktab xo’jaligi bazasida o’lkadagi birinchi ipak qurtini tayyorlash stansiyasi tashkil etilgan edi (unga V.F.Oshaninning yordamchisi A.I.Vilkins rahbarlik qildi).

MUHOKAMA

Mahalliy ipak tolalarining aksariyati kasallanganligi va tanqisligi natijasida ipakchilik sohasida maktab katta yutuqlarga erisha olmagan. 1878-yilgi Imperiya Xalq maorifi vazirligining “Sanoat bilim yurtlarini tashkil etish” to’g’risidagi qonunga asosan Xalq maorifi vazirligi sanoat bilim yurtlarini tashkil etish rejasini ishlab chiqdi va 1881 yil noyabrda mazkur rejaning tasdiqlanishi bilan qonuniy asosda butun Rossiya, shu jumladan, Turkiston o’lkasi bo’ylab davlat va xususiy sarmoyalar hisobidan sanoat bilim yurtlari, shahar maktablari huzurida hunarmandchilik sinflari va qo’l mehnati sinflari tashkil etila boshlandi. Bu tadbirlar nazariy bilimlar bilan birga amaliy mashg’ulotlar asosida malakali ishchilar, ustalar va texnik mutaxassislarni tayyorlashda yangi yo’nalish edi. Mutaxassislar tayyorlashning bu yo’nalishi Rossiyada krepostnoylik huquqini bekor qilinishi bilan yirik sanoat korxonalarini va temir yo’l tarmoqlarining rivojlanishi natijasida shakllandi. 1896-yili Toshkentda hunarmandchilik bilim yurti ochilib, unda paxta tozalash va boshqa korxonalar uchun malakali duradgor, chilangar, tokarlar va temirchilar tayyorlanardi. 1914-yilda Turkiston o’lkasida 160 ta maktab bo’lib, 135 ta boshlang’ich, 13 ta o’rta, 12 ta yuqori maktablar bo’lgan[9, B. 11].

1917-yil Turkistonda milliy ta’lim tizimini tashkil etish masalasi hal qilinishi shart bo’lgan muammolardan biri bo’lib turdi. 9-14 mayda Toshkentda o’qituvchilarning I o’lka qurultoyi bo’ldi. U ta’lim tizimining ahvoli bilan bog’liq bo’lgan ko’pgina masalalarni muhokama qildi hamda “Turkiston o’qituvchilar ittifoqini” tashkil etdi. Qurultoyda ma’ruza qilgan Muvaqqat hukumat Turkiston

TARIX

qo'mitasining a'zosi S. Maqsudov, yirik sharqshunos L. Zimin, Farg'ona viloyatining maorif bo'yicha inspektori F. Yegorov mahalliy aholiga ta'lim berish ishida rus-tuzem maktablarining yaroqsiz ekanligini isbotlab berdilar [10, B. 30].

XULOSA

Xullas, Turkiston o'lkasida rus mustamlakachilik siyosati uchun rus-tuzem maktablari tayanch vazifani bajardi. O'lkada harbiylarning ko'chirib keltirilgan bolalari va aholining migratsiyasi mustamlakachilik siyosatini yanada mustahkamladi. Mamlakatda maorif sohasida madaniy armiya tashkil etishdi. O'lka aholisining ma'naviy olami va iqtidori e'tiborga olinmadi hamda ruslashtirish chora-tadbirlari ham kuchaytirildi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Shamsutdinov R., Rasulov B. Turkiston maktab va madrasalar tarixi. A.: "Meros". 1995. 23-bet. (Shamsutdinov R., Rasulov B. History of Turkestan schools and madrasas. A.: "Inheritance". 1995. Page 23.)
2. Komilov O. O'zbekiston milliy ta'limi transformatsiyasi tarixidan (XX asrning 20-yillari). –T. «Fan va texnologiya». 2019. 23-bet. (Komilov O. From the history of the transformation of the national education of Uzbekistan (20s of the 20th century). –T. "Science and technology". 2019. Page 23.)
3. Komilov O. O'zbekiston milliy ta'limi transformatsiyasi tarixidan (XX asrning 20-yillari). –T. «Fan va texnologiya». 2019. 24-bet. (Komilov O. From the history of the transformation of the national education of Uzbekistan (20s of the 20th century). –T. "Science and technology". 2019. Page 24.)
4. Ergashev Q. O'zbekistonda xalq ta'limi rivojlanishi tarixi. T.: "O'qituvchi". 1998. 12-bet. (Ergashev Q. History of development of public education in Uzbekistan. T.: "Teacher". 1998. Page 12.)
5. Qodirov N. Turkiston o'lkasidagi rus ta'lim muassasalari tarixi. T.: 2013. 93-99-betlar. (Kadyrov N. History of Russian educational institutions in Turkestan. T.: 2013. pp. 93-99.)
6. Komilov O. O'zbekiston milliy ta'limi transformatsiyasi tarixidan (XX asrning 20-yillari). –T. «Fan va texnologiya». 2019. 12-bet. (Komilov O. From the history of the transformation of the national education of Uzbekistan (20s of the 20th century). –T. "Science and technology". 2019. Page 12.)
7. Ergashev Q. O'zbekistonda xalq ta'limi rivojlanishi tarixi. T.: "O'qituvchi". 1998. 11-bet. (Ergashev Q. History of development of public education in Uzbekistan. T.: "Teacher". 1998. Page 11.)
8. G'afforov Sh.S. Chor istibdodi davrida Turkistondagi ta'lim tizimi. - Samarqand, 2001. 84-85-bet. (Ghafarov Sh.S. Education system in Turkestan during Tsarist dictatorship. - Samarkand, 2001. pp. 84-85.)
9. Qodirov YE. O'zbekistonda xalq maorifining 40-yil ichida erishgan yutuqlari. –T.: O'zdavo'qpednashr. 1957. 11-b (Kadirov E. Achievements of public education in Uzbekistan in 40 years. - T.: Self-published. 1957. 11 p)
10. Komilov O. O'zbekiston milliy ta'limi transformatsiyasi tarixidan (XX asrning 20-yillari). –T. «Fan va texnologiya». 2019. 30-bet. (Komilov O. From the history of the transformation of the national education of Uzbekistan (20s of the 20th century). –T. "Science and technology". 2019. Page 30.)